AMIR TEMURNING OTA SIFATIDAGI SIYMOSI, VORISLAR VA AMIRLARGA MUNOSABATI

Jumayev Elmurod Bekpulatovich
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
dotsenti v.b, fffd (PhD), E-mail:elmurodjumayev272@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0003-7433-7706
https://doi.org/10.5281/zenodo.22861631

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tarixiy romanchiligida Amir Temur obrazining oila boshlig‘i va ota sifatidagi siymosi, uning farzandlari hamda vorislariga munosabati, shuningdek, amirlar bilan o‘zaro munosabatlarining badiiy talqini tahlil qilinadi. Amir Temurning buyuk davlat arbobi va sarkarda sifatidagi qiyofasi bilan bir qatorda, uning oilaviy munosabatlari, farzand tarbiyasiga bo‘lgan qarashlari, vorislik masalasidagi yondashuvi hamda yaqin amaldor va amirlar bilan munosabatlarida namoyon bo‘ladigan insoniy fazilatlari yoritiladi. Maqolada tarixiy manbalarda aks etgan ma’lumotlarning badiiy asarlarda qayta ishlanishi, tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning o‘zaro uyg‘unligi hamda yozuvchining Amir Temur shaxsiga individual munosabati ko‘rib chiqiladi. Amir Temur obrazining ushbu jihatlari orqali tarixiy shaxsning insoniy qiyofasi yanada kengroq ochib berilishi va uning badiiy obrazini yaratishda oilaviy hamda siyosiy munosabatlarning muhim poetik vosita sifatidagi ahamiyati asoslanadi.
Kalit so‘zlar: Amir Temur obrazi, ota siymosi, farzandlar, vorislik, vorislar, amirlar, oilaviy munosabatlar, davlat boshqaruvi, tarixiy shaxs, tarixiy roman, badiiy talqin, tarixiy haqiqat, badiiy to‘qima.

Аннотация. В статье анализируется художественное воплощение образа Амира Тимура в узбекских исторических романах; особое внимание уделяется его образу как главы семьи и отца, его отношению к детям и преемникам, а также взаимодействию с эмирами. Наряду с образом великого государственного деятеля и полководца, в статье рассматриваются его семейные отношения, взгляды на воспитание детей, подход к вопросу престолонаследия и человеческие качества, проявляющиеся в общении с приближенными и эмирами. Исследуются процессы переосмысления сведений из исторических источников в литературных произведениях, соотношение исторической правды и художественного вымысла, а также авторское видение личности Амира Тимура. В статье показано, как эти аспекты позволяют полнее раскрыть человеческую сторону исторической личности, и обосновывается значимость семейных и политических отношений как важных художественных приемов при создании литературного образа правителя.
Ключевые слова: образ Амира Тимура, образ отца, дети, престолонаследие, преемники, эмиры, семейные отношения, государственное управление, историческая личность, исторический роман, художественная интерпретация, историческая правда, художественный вымысел.

Abstract. This article analyzes the artistic portrayal of Amir Timur in Uzbek historical novels, focusing on his image as a family head and father, his attitude toward his children and successors, and his interactions with his emirs. Alongside his persona as a great statesman and military commander, the article highlights his family relationships, views on child-rearing, approach to the issue of succession, and the human qualities revealed in his dealings with close officials and emirs. It examines how information from historical sources is reimagined

in literary works, the interplay between historical truth and artistic fiction, and the author's individual perspective on Amir Timur. The article demonstrates how these facets reveal the historical figure's human side more fully and establishes the importance of family and political relationships as vital poetic devices in crafting his literary character.

Keywords: Image of Amir Timur, father figure, children, succession, successors, emirs, family relationships, state governance, historical figure, historical novel, artistic interpretation, historical truth, artistic fiction.

Kirish. Milliy istiqlol sharofati bilan badiiy ijod mustabid tuzumning soxta mafkurasidan ozod bo‘ldi, ijod ahli so‘z erkinligidek yuksak bir imkoniyatga erishdi va Amir Temur haqida asar yaratishning o‘ziga xos bir yangi davri boshlandi. Davr va qahramon masalasi muhim bo‘lgan o‘tish davrida ijod ahli har uchala adabiy tur – she’riyat, nasr va dramaturgiyada Amir Temur mavzusiga murojaat qila boshlashdi. Amir Temur hayoti va faoliyatini o‘rganish, u haqida yozilgan tarixiy, badiiy asarlar tadqiq qilina boshlandi.

Nurali Qobulning “Jahon mulkining sultoni yoxud fotih Temur va Yildirim Boyazid” romanida millat tarixining XIV asrlarida bo‘lib o‘tgan voqealari bayon qilingan. Asarda turkiy dunyoning ikki dunyoni larzaga keltirgan sultoni sohibqiron Amir Temur va Usmonli turklar sultoni Yildirim Boyazidning Anqaradagi tarixiy jang, bu qonli to‘qnashuvni keltirib chiqargan sabablar, uning dunyo mamlakatlariga ko‘rsatgan ta’siri, natijada ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy hayotda yuzaga kelgan o‘zgarishlar, bir so‘z bilan aytganda, jahon tamadduni taraqqiyotidagi ahamiyati ko‘rsatilgan. Shu bilan bir qatorda, bu jangni keltirib chiqargan sabablarning bugunga qadar keng kitobxonlar ommasiga ma’lum bo‘lmagan ayrim jihatlari yoritilgan.

Roman oldingi to‘rt asarning davomi bo‘lib, ularning barchasi g‘oyaviy jihatdan butunlik kasb etadi. Mazkur roman to‘g‘risida “Sharq ziyosi” gazetasi, 2001-yil, 14-iyun sonida yozilishicha, unda ulug‘ ajdodimizning o‘z xalqi va vataniga bo‘lgan cheksiz mehr-muhabbati, sadoqati uni naqadar yuksaklikka ko‘targanligi badiiy-tarixiy bo‘yoqlarda jozibali tasvirlanadi.

Adabiyotimizda o‘ziga xos voqea deb baholangan bu asarda vatanparvarlik, yurtsevarlik, xalqqa bo‘lgan mehr, sadoqat ulug‘langan. “Jahon mulkining sultoni yoxud fotih Temur va Yildirim Boyazid” elchi Chimboy Elchikdayning Yildirim Boyazid huzuridagi lavha bilan boshlanadi. Bolqon tog‘laridagi nasroniy yerlaridan Arzinjonga qadar hududni o‘z qo‘l ostida tutib turgan, so‘nggi o‘n yil ichida Menteshe, Saruxon va Qahramon o‘g‘illarini va Kermiyon viloyatini o‘z tasarrufiga olgan Yildirim Boyazid o‘zini Amir Temurdan kuchli hisoblardi. Shuning uchun ham unga elchi keltirgan maktubdagi so‘zlar juda og‘ir botdi. Maktubda “Yildirim Boyazidni inim degani mayli, hatto o‘zining bir amiri yoki hokimi kabi ko‘rib sovuq munosabatda bo‘layotgani, hayotida hech kim mirlamagan va so‘zi qaytmagan sijoq qonli sultonning g‘azabini qo‘zg‘atdi”[1].

Tadqiqot muhokamasi. Yozuvchi asar boshidayoq voqealar avj bir nuqtada, dramatizm kuchayishiga turtki beradigan, konflikt taranglashgan epizod bilan boshlagan. Bu esa kitobning qiziqarliligini oshirgan va romanga o‘ziga xos bir sirli tus bergan.

Tarixiy manbalarda ko‘rsatilgan har bir detaldan o‘rinli foydalana olish ham tarixiy asarning shartlaridan biri. Nurali Qobul Yildirim Boyazid obrazida sultonning adolatli podshoh bo‘lsa-da, biroz shoshma-shoshar, sabrsizroqligini, dinida sobitligini, musulmonlar uchun har qanday ishga tayyorligini ta’kidlab, “hayajonining kuchliligidan u majlis to‘rida turib ma’ruza boshlasa, betinim harakatidan ayvonning chetiga yoki poygakka kelib qolardi”,-

[1] Қобул Нурали. Жаҳон мулкининг султони ёхуд фотиҳ Темур ва Йилдирим Боязид. Тарихий роман V. – Тошкент: Камалак, 2016. –Б. 4.

deb yozadi. Tasvirdan ko‘rinadiki, muallif sulton xarakterini sinchkovlik bilan o‘rgangan va buni amalda mahorat bilan qo‘llay olgan.

“Adibning tarixiy haqiqatga izchil asoslangan badiiy talqinidagi Amir Temur siymosiga munosabat masalasida uzoq asrlar mobaynida shakllangan sterotip tamoman buziladi”[2]. Bu bevosita bosh qahramonning e’tiqodi bilan bog‘liq. Islom dinini muqaddas deb bilgan va uning talablariga so‘zsiz itoat qilgan, har bir ishda islom dini aqidalariga tayangan Amir Temur o‘zini olamning egasi deb bilmaydi. Aksincha, u ham o‘zining boshqalar qatori bir ojiz banda ekanligini, taqdir oldida o‘zining tamom chorasiz, ojizligini, olamni yaratgan va boshqarib turgan Zot mavjudligini, hamma narsa o‘shaning izmida ekanligini teran idrok etadi.

Yildirim Boyazid maktubda yozilgan so‘zlar ta’sirida quyushqondan chiqib ketgan bo‘lsa ham, Amir Temurga o‘nta ovchi qush, o‘nta asl ot hadya qilib elchisi Temurtoshni Elchikdayga qo‘shib jo‘natishga qaror qiladi va o‘zining Turon o‘rdusi bilan jang qilish niyati yo‘qligini tayinlaydi.

Bahavo bir maskanda joylashgan, jannatmisol bog‘lar bilan o‘ralgan, qoya ustiga qurilgan mustahkam Kemox qal’asi tasviridan so‘ng yozuvchi kutilmaganda tabiat hodisasiga burib yuboradi: “Bu yerda yana bir g‘alati hodisa sodir bo‘lar ediki, erta bahorda osmondan quyoshmi yoki toshlar jazirasidanmi minglarcha chumchuq galalari yerga pishgan holda tushar, odamlar bu qushlarni tuzlab, ko‘za va xumlarni to‘ldirib, qish-u yoz yeyishardi”.

Chimboy Elchikday Yildirim Boyazidning haqoratlarini elchilik odobi yuzasidan zo‘rg‘a tinglab turarkan, uning ruhiyatidagi alam, g‘azab, nafrat birdan rahmdillik bilan almashadi. U Amir Temurning g‘oyat bosiqlik bilan aytiladigan so‘zlari oldida sultonning hozirgi o‘zini tutishi unda achinish uyg‘otadi. Har bir narsa qiyosda aniq aks etganidek, bu yerda ham ikki sultonning farqi yaqqol ko‘rinadi: “Ikki og‘iz so‘zi bilan Temurdek odamni o‘ziga do‘st qilib, dunyoning qolgan qismini egallashi mumkin edi bu odam. Shuhrat va manmanlik, ko‘zni yog‘ bosmog‘i va takabburlik naqadar buyuk ofat! Uni anglab yetmoqlik uchun jahongir podshoh bo‘lmoq va uzoq muddat yurt so‘ramoq yetmas ekan”[3].

Elchining fikrlari tasdig‘i Yildirim Boyazidning asirlikda, o‘zini xatolarini tushunib yetgan paytdagi iqrorida namoyon bo‘ladi.

Romanda Amir Temur, Yildirim Boyazid, Shayx Nuriddin, amir Boboturk, Tohir tarixchi, amir Temurtosh, amir Shohmalik, valiahd Muhammad Sulton, Sulaymonshoh, shahzoda Mustafo, Yoqubbek kutvol, qori A’lam Alimzoda, Malik Nosir singari obrazlarning har birida davr va muhit, milliy va jug‘rofiy o‘ziga xoslik, olam va odamni idrok etishning turfa ko‘rinishlari aks etgan. N.Rahmonov o‘zining “Tarixiy davr manzarasi” maqolasida[4] “Muhammad Ali mazkur tarixiy romanida o‘z oldiga kitobxon tarixiy voqealarni bilib olsin, degan maqsadni qo‘ymagan”ligini, balki Amir Temurning barkamol insonligini, suyukli nabirasi Muhammad Sultonning bobosiga ruhan yaqinligini dalillash, shuning uchun uni Amir Temur o‘ziga voris sifatida tanlaganini, Axiy Jabbor, Shoh Mansur, Usta Xorazmiy, Umarshayx Mirzo singari obrazlar orqali tetralogiyaning “insonshunoslik” ekanligini ko‘rsatib berganligini ta’kidlab ko‘rsatadi. Bizning fikrimizcha atoqli olim, N. Rahmonovning fikr va mulohazalari teran, asosli. Asarni o’qish mobaynida har xil hayotiy vaziyatlarda Temur shaxsiyati, uning buyuk qalbi ochib berilgan. Ko’rinadiki, Muhammad Ali temur shaxsini samimiy muhabbat bilan tasvirlagan.

Xulosa. Tabiat tasviri va voqealarni parallel keltirish orqali muallif kelajakka ishora qiladi. Yildirim Boyazidning qo‘shini Sohibqiron lashkaridan qariyb ikki barobar ko‘p

---

[2] Назаров Б. Тарихий ҳақиқат ёғдулари ёхуд ўзликни бадиий англаш. (Сўнгсўз) / Қобул Нурали. Етти иқлим ҳоқони ёхуд аҳд ва тахт. Тарихий роман II. – Тошкент: “Ijod Press”, 2015. – Б. 458.

[3]Қобул Нурали. Жаҳон мулкининг султони ёхуд фотиҳ Темур ва Йилдирим Боязид. Тарихий роман V. – Тошкент: Камалак, 2016. –Б. 8.

[4]. Раҳмонов Н. Тарихий давр манзараси. ЎзАС газетаси, 2010, 7 январь

bo‘lishiga qaramasdan, sharmandalarcha mag‘lubiyatga uchrashi va o‘zining kutilmagan bir vaziyatda asir tushishi, janglarda katta tajriba orttirgan qo‘shinning xuddi chumchuq galalari kabi qirilishiga ishora qilingan. Amir Temur iloji boricha qo‘shinni mamlakat ichkarisiga kirishiga harakat qilayotgan bir paytda, Yildirim Boyazid o‘zining sonsiz lashkarlarini yoz jaziramasida, suvsiz, och-nahor oldinga boshlar, lashkar allaqachon holdan toygan edi. Amir Temur jang o‘rni qanchalik muhimligini chuqur anglash bilan birga, savash boshlanguncha sulton qo‘shinini birmuncha kuchsizlantiradi, dushman qalbidagi g‘alabaga bo‘lgan ishonch ruhini so‘ndiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Қобул Нурали. Жаҳон мулкининг султони ёхуд фотиҳ Темур ва Йилдирим Боязид. Тарихий роман V. – Тошкент: Камалак, 2016. –Б. 4.
2. Назаров Б. Тарихий ҳақиқат ёғдулари ёхуд ўзликни бадиий англаш. (Сўнгсўз) / Қобул Нурали. Етти иқлим ҳоқони ёхуд аҳд ва тахт. Тарихий роман II. – Тошкент: “Ijod Press”, 2015. – Б. 458.
3. Қобул Нурали. Жаҳон мулкининг султони ёхуд фотиҳ Темур ва Йилдирим Боязид. Тарихий роман V. – Тошкент: Камалак, 2016. –Б. 8.
4. Раҳмонов Н. Тарихий давр манзараси. ЎзАС газетаси, 2010, 7 январь.